

EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING GLOBAL TAHDIDI, ULARNI O'ZARO BOG'LOVCHI OMILLAR TAHLILI.

Maxmudov Oybek Norqilichovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti

Magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga tahdidini nazariy tahlil qilingan va ularning mazmunini ochib berilgan. O'tkazilgan tahlillar asosida ma'lum darajada ekstremizm va terrorizmning bugungi davrda har bir fuqaro, millat, xalqlarga yanada xavf solayotganligi dolzarb muammo sifatida keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Global tahdidlar, ekstrimizm, diniy ekstrimizm, terrorizm, halqaro terorizm, diniy-ekstrimistik oqimlar, terrorchilik tashkilotlari, ijtimoiy-xavfli fenomen, statistika, tahlil, xavfsizlik, omillar.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida “Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanini hamda bizning muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'raonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi”⁵⁰ deb ta'kidlagan edi. Diniy ekstremizm va terrorizmning o'zini talqin qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha davlat qo'mitasi O'.Hasanboev⁵¹, Diniy ekstremizm va terrorizm-o'zlari mansub bo'lgan diniy konfessiya vakillarini radikal harakatlarga chorlovchi, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarishga intiluvchi, mavjud konstitutsion tuzumni ag'darib tashlashga da'vat etuvchi tajovuzkor siyosiy faoliyatdir deb ta'kidlagan. Albatta bugungi kunda ekstremizm va terrorizm balosidan aziyat chekmagan davlat deyarli qolmadi. Insonlarni tashvishga soladigani esa, ko'plab davlatlar birgalikda bir necha yillardan buyon mazkur illatga qarshi ayovsiz kurash olib borayotgan bo'lsada, bu kurashning ijobiy natijasi ko'rinmayotganidir.

“Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi hamda diniy ekstremizm va terrorizmning xalqaro miqyosda tobora tus

⁵⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясидаги нутқи

⁵¹ “Диний экстремизм ва терроризм – жамият тараққиётига таҳдид” Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича давлат қўмитаси Ў.Ҳасанбоев Дилнома,янгиликлар таҳлил танқид ва мулоҳазалар 14.06.2022 йил dilynoma.uz,

olayotgani, uning tub ildizi qirg'ilishi o'rniga, aksincha keng tarqalib borayotgani natijasida minglab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo'lmoqda". Sh.M.Mirziyoev⁵²,

Xo'sh, ekstremizm va uni keltirib chiqaradigan omillar nimalardan iborat? Ekstremizm - lotincha (extremus – o'ta, keskin degan mazmuni beradi) jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir⁵³.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi "Ekstremistik faoliyatga qarshi qurash to'g'risida"gi Qonunining 2- moddasida, Ekstremizm -ijtimoiy-siyosiy vaziyatning beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik va diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasidir⁵⁴.

filologiya fanlari bo'yicha professor Dilrabo Kuryazovaning fikricha "Ekstremizm hokimiyatni zo'rlik bilan tortib olish yoki zo'rlik bilan uni ushlab turish, shuningdek, zo'rlik bilan davlatning konstitutsion tuzumini o'zgartirish uchun amalga oshiriladigan kirdikordir va u jamiyat xavfsizligiga zo'rlik bilan aralashish barobarida, shuningdek, yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish yoki unda ishtirok etish uchun noqonuniy ravishda qurollangan guruhlar tashkil etish bo'lib, tomonlarning milliy qonunchiligiga muvofiq ravishda ta'qib etiladi", degan⁵⁵

Ekstremizm mazmuniga ko'ra - diniy va dunyoviy bo'lishi yoki namoyon bo'lishiga ko'ra – hududiy, mintaqaviy, halqaro shakllarga bo'linadi. Ekstremistlar qarashlari juda chuqur ildizlarga ega bo'lib, ular hech qachon chegara bilmagan yoki din, millat, biron bir mamlakat hududini tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ko'rinishlari mavjud bo'lsa, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Ular xristian dinida, katoliklar, protestantlar, provaslavlilar orasida ham mavjud⁵⁶.

Ekstremizm turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin – bolshevizm, fashizm, diniy ekstremizm kabi turlarga bo'linadi. Ular o'zlarini g'oyalari, harakatlari, tashkilotlari, moddiy ta'minlash va tashkiliy tuzilmalari faoliyatlari kompleksi (yigindisi) dan iborat bo'ladi. Ekstremistik tuzilmalar qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, uning asosiy maqsadi jangarilik yo'li bilan hokimiyatni qo'lga olishdir. Yoki siyosiy hokimiyatga erishish orqali jamiyatni to'la islom shariati qonun-qoidalari asosida qayta tashkil qilish va boshqarish lozim deb hisoblaydilar.

Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan bo'lib, ular qaerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatini barpo qilishdir. Bu maqsadga o'zaro

⁵² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясидаги нутқи

⁵³ Ekstremizm va terrorizm — havfli illat. Dilnoma,yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar,dilnoma.uz, 07.08.2022 yil Dilrabo Kuryazova.

⁵⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 30 июлдаги “Экстремистик фаолиятга қарши кураш тўғрисида”ги Қонунининг 2- моддаси

⁵⁵ Ekstremizm va terrorizm — havfli illat. Dilnoma,yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar,dilnoma.uz, 07.08.2022 yil Dilrabo Kuryazova.

⁵⁶ Ekstremizm va terrorizm — havfli illat. Dilnoma,yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar,dilnoma.uz, 07.08.2022 yil Dilrabo Kuryazova.

nizolar, ixtiloflar keltirib chiqarib qurolli to'qnashuvlar orqali ya'ni qon to'kish, zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev "Ayni vaqtda dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda" deya Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tgan⁵⁷.

Terrorizmning mohiyati to'g'risida fikr yuritilsa, terrorizm tushunchasi (lotincha – «terror» - qurquv, dahshat ma'nolarini anglatadi) ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida siyosiy kurashning jamiyatda beqarorlik o'rnatishga hamda aholda vahima va dahshat uyg'otishga qaratilgan jinoiy usuldir. Bu konsperativ ruhdagi tashkilotlar davlatni beqarorlik holatiga keltirishda shu usuldan foydalanadilar. Terrorizmning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, u buzg'unchilik, qo'poruvchilik, qo'rqitish yo'li bilan o'z hukmini o'tkazib, davlatni qulatuvchi, hokimiyatga erishishda parokandalikka olib keluvchi g'oyasidan foydalanish bilan xarakterlanadi⁵⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o'z nutqida "Islom bu tinchlik totuvlik dinidir. Islom bu terror emas, terrorizm bu diniy terrorizm emas, halqaro terrorizmdir"⁵⁹ deb ta'kidlab o'tgan. Hozirgi davrdagi shakllangan halqaro terrorizm tushunchasida esa davlatlar, halqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalarni beqarorlashtirish va halqaro ijtimoiy – siyosiy nufuzga ega bo'lgan alohida siyosiy arboblarni qotil qilishga yo'naltirilgan buzg'unchi siyosiy xususiyati bilan xarakterlanadi. Terrorizm iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib qilish, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik terrorizmning har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, u gumanizm, demokratiya, adolat tamoyilillariga ziddir. SHuning uchun terrorizm qanday "bayroq" ostida amalga oshirilmasin, mohiyati insoniyatga, jamiyat taraqqiyotiga, ezgulikka qarshi jinoyatdir.

Mamlakatimizda ushbu jinoiy harakatlarga chek qo'yish va oldini maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda 167-II-son "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

Markur qonunning maqsadi - terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, asosiy vazifalari - shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев, ўзининг Олий Мажлисида 2017 йилги Мурожаатномаси

⁵⁸ Ekstremizm va terrorizm — havfli illat. Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilnoma.uz, 07.08.2022 yil Dilrabo Kuryazova.

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Бош Ассамблеясининг 75- сессиясидаги нутқи. 23 сентябр 2020 йил.

Ushbu Qonunning 2-moddasi asosiy tushunchalar berilgan,

garovga ushlab turilgan shaxs - qo'lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo'lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs;

terrorizm - siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob'ektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar⁶⁰;

Terrorning iqtisodiy manfaatlarini ko'zlovchi, moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan ko'rinishlarda, raqib shaxslarni jismoniy yo'q qilish, o'g'irlab ketish, garovga olish, tajovuz bilan qo'rqitib o'z hukmini o'tkazish yoki raqiblar boyliklarini o'zlashtirishda foydalanadi.

Siyosiy maqsadlarni ko'zlagan terrorizm qadimdan mavjuddir. Masalan, O'rta asrlar davrida siyosiy terrorchilik diniy mazmundagi terrorchilik bilan qo'shib ketgan edi. Chunki, o'sha davrlarda hukmdorlar ham diniy hamda dunyoviy hokimiyatni o'yg'unlashtirib boshqarganlar. Islomda Muhammad s.a.v vafotidan keyinga to'rtta halifadan faqatgina Abu Bakr Siddiq o'z ajali bilan vafot etgan. Qolgan halifalar Umar Ibn Xattob, Usmon Ibn Affon va Ali Ibn Abu Toliblar ham siyosiy muholiflari tomonidan terroristik yo'l bilan o'ldirilganligini ko'rish mumkin.

Terrorizmning to'rt davri mavjud: qadimgi, klassik, an'anaviy va zamonaviy.

Rossiyalik ekspert V. Postolnik (RF IIV Moskva instituti kafedra mudiri) - terrorizmni ko'rinishiga qarab quyidagicha tasniflaydi, Siyosiy terrorizm, Ijtimoiy terrorizm, Milliy terrorizm, Hududiy-separatistik terrorizm, Dunyoqarash terrorizmi, Biologik terrorizm, Jinoiy terrorizm⁶¹.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning 80 % islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga "al-Qoida", "Musulmon-birodalar", "Hizbut-tahrir", "al-Jihod al-Islomiy", "at-Takfir val-Hijra" (Misr), "Abu Sayyof" (Filippin), "Ozod Achex", "Lashkari jihod" (Indoneziya), "Qurolli

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun 2-moddasi

⁶¹ Классификация террористических актов <http://www2.bigpi.biysk.ru/antiterror/>

islomiy harakat” (Jazoir), vahhobiylar, ABu Nidal guruhi, Qurolli islom guruhi, AUM Sinrikyo, Basklar va ozodlik vatani, Al-Jamoa al-islomiya, HAMAS, Musulmon birodarlari, Harakat al-mujohidiyn, Hizbulloh, “17 noyabr Inqilobiy tashkiloti”, “Inqilobiy xalq-ozodlik fronti partiyasi” (“Del Sol” nomi bilan ma’lum), “Inqilobiy xalq kurashi”, “Sendero Lyuminoso” (“Yorug’ yo’l”, shuningdek “Partizanlar-xalq armiyasi”), “Tupak Amaru inqilobiy harakati”, “O‘zbekiston Islom harakati”, “O‘zini mudofaa qilish birlashgan kuchlari” kabi tashkilotlarni kiritish mumkin⁶².

AQSH Davlat departamentining ma’lumotlariga ko‘ra, 2006 yili dunyoda 14338 (2005 yili - 11153) terrochilik harakatlari amalga oshirilgan bo‘lib, ular oqibatida 20498 odam halok bo‘lgan (2005 yili 14618 ta). Qo‘poruvchiliklar oqibatida 1800 nafar yosh bola hayotdan ko‘z yumgan yoki yarador bo‘lgan. Terrorchilik harakatlarining 45% Iroqda, yana shuncha foiz harakat Misr va boshqa arab davlatlarida amalga oshirilgan. Terrorchilar 2006 yili 350 ta masjidni vayron qilishgan. 6630 marta odam o‘g‘irlangan. Yaqin Sharq mamlakatlaridagi bugungi siyosiy holatni o‘zingiz ko‘rib turibsiz⁶³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 78- sessiyasida “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Milliy strategiyamiz doirasida ilgari ekstremizm g‘oyalari ta’sirida bo‘lgan shaxslarni sog‘lom hayotga qayqaytarish va jamiyatga moslashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgani qayd etildi. Besh marta “Mexr” insonparvarlik missiyasi o‘tkazildi, uning doirasida 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo ayollar vabolar Qurolli nizolar xududidan yurtimizga qaytarildi deb ta’kidlab o‘tdi⁶⁴.

Shu o‘rinda ushbu statistik ma’lumotlar e’tiborga molik, BMTning inson huquqlari bo‘yicha Bosh komissari Navi Pillay e’lon qilgan ma’lumotga ko‘ra 2012 yilning iyul oyidan boshlab Suriya va Iroqda har oyda 5000 nafar odam o‘lmoqda. O‘layotganlar orasida qariyalar, ayollar, oilalar, hatto emizikli go‘daklar ham bor. Fransiyaning Frans-Press nashri “Syrian Observatory for Human Rights” tashkilotiga tayanib tarqatgan xabariga ko‘ra 2011-2015 yillar davomida halok bo‘lganlarning soni 230000 ga etgan. Ulardan 69494 tasi tinch aholi vakillari, 11493 tasi bolalar, 7371 tasi ayollardan iborat⁶⁵.

Global terrorizm indeksi						
t/	Mamlakatlar	Indeks	Holat	Vafot etganlar	Jabr ko‘rganlar	Moddiy zarar (mln\$)
1	Iroq	9.56	1228	1798	4905	660
2	Pokiston	9.05	910	1468	2459	458
3	Afg‘oniston	8.67	364	1293	1882	131
4	Hindiston	8.15	529	402	667	184

⁶² Имом бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази директор ўринбосари Бахтиёр Тураев diniy ekstremizm va terrorizm, bukhari.uz

⁶³ Имом бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази директор ўринбосари Бахтиёр Тураев diniy ekstremizm va terrorizm, bukhari.uz

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев БМТ Бosh Ассамблеясининг 78- сессияси нутқи. Нью-Йорк ш, 2023 йил 19-сентябр

⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Дин ишлар қўмитаси директори ўринбосари Ў.Ҳасанбоев “Диний экстремизм ва терроризм - жамият тараққиётига таҳдид” 19.10. 2017 yil, BMTning inson huquqlari bo‘yicha Bosh komissari Navi Pillay BMT da so‘zlagan ma‘ruzası, 2017 yil.

5	Yaman	7.30	113	454	415	44
6	Somali	7.24	175	294	493	35
7	Nigeriya	7.24	168	437	614	33
8	Tailand	7.09	173	142	427	59
9	Rossiya	7.07	182	159	431	66
1	Filippin	6.80	125	120	213	53

Moldovalik tadqiqotchi O. Balan fikricha, terrorizmni quyidagi tamoyillar asosida tasniflash mumkin⁶⁶.

I. Terroristik aktning maqsadi va g'oyasiga ko'ra:

a) jinoiy terrorizm - u moddiy yoki shaxsiy manfaatlardan kelib chiqadi. Amalda talonchilik, shantaj va tahdid tarzida uchraydi;

b) ijtimoiy terrorizm - uning maqsadi - biron bir mamlakatda hukumatni ag'darish, ijtimoiy tizimni izdan chiqarish.

O'ziga xos jihati shundaki, bu shakldagi terrorizm odatda boshqa bir mamlakat hududiga o'tib ketmaydi (biroq ta'sir etishi mumkin);

v) siyosiy terrorizm asosiy maqsadi-davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni buzish, aniq bir siyosiy rahbar yoki davlat boshlig'ini yo'q qilish.

Bu kabi teraktga tarixda misolla ko'p uchraydi:

Siyosiy terrorizm qurbonlari

prezidentlar-AQSHda Jon Kennedi, Misrda Anvar Saodat, Chilida Salvador Alende,

bosh vazirlar-Hindistonda Indira va Rajiv Gandi, Isroilda Ishoq Rabbin;

g) davlat terrorizmi-uning maqsdi aniq bir shaxslarga yoki qandaydir siyosiy harakatlarga nisbatan davlat tomonidan amalga oshiriladigan teraktlar.

2. Amaldagi destruktiv omillar va ularning tarqalishi hududiga ko'ra:

a) milliy yoki ichki terrorizm-u shunday terroristik muhit yaratadiki, mavjud zo'rovonlik harakatlari vositasida aholining ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Terroristlar tomonidan yaratilgan bunday sharoitda mamlakatdagi ijtimoiy tuzilmalar ishdan chiqariladi.

Milliy terrorizm hozirgi paytda yangi hajm va ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Uning maqsadi - hukumat obro'siga putur yetkazish va fuqarolarni qo'rqitishdan iboratdir;

b) xalqaro terrorizm - bu chet ellarda turib, ma'lum guruh rahbarlari tomonidan boshqa bir mamlakat ichkarisidagi kuchlardan noqonuniy foydalanish, ularni boshqarish, zo'rovonlik qilishdan iboratdir.

Bunday turdagi terrorizmning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

havodagi qaroqchilik,

odamlarni garovga olish,

diplomatlar va boshqa siyosiy rahbarlarni o'g'irlab ketish.

Ularning evaziga mavjud siyosiy o'zgarishlarni talab etish.

⁶⁶ Молдовалик тадқиқотчи, филология фанлари профессори О. Балан маърузаси.

3. Terrorizmning paydo bo'lishi sabablariga ko'ra:

a) irqiy terrorizm - XX asrning ikkinchi yarmida AQSHda paydo bo'lgan. Mashhur "Ku-kluks-klan" (KKK - oq millatchilar) tashkiloti tomonidan shakllantirilgan.

b) milliy terrorizm - odatda faqat bitta davlat hududida uchraydi;

v) neofashistik terrorizm – "o'ng" kuchlar siyosatini o'rnatish, birovlar ustidan zo'rvonlik qilish, o'zga mamlakatlarning ichki ishlariga aralashishga yo'naltirilgan;

g) fundamental-diniy terrorizm - misol tariqasida turli mamlakatlarda teraktlarni amalga oshirgan quyidagi tashkilotlarni qayd etish mumkin: YAponiyada Aum Sinrikyo, Irlandiyada IRA, Isroilda XAMAS va hk.⁶⁷

Ta'sir ko'rsatish metodlariga ko'ra tasnifi.

Jismoniy zo'rvonlikka yo'naltirilgan terrorizm. YA'ni - ayrim shaxslar yoki butun bir guruhlarning hayotiga tajovuz qilish, ularga jismonan shikast etkazish, erkinligini cheklash;

Moddiy ob'ektlarni yakson qilish maqsadidagi terrorizm - davlat, jamoatchilik yoki xususiy shaxslarlarga tegishli binolarni ataylab yoqib yuborish yoki buzib tashlash;

Ruhiiy-psixologik metodlar qo'llaniladigan terrorizm - turli tahdidlar, shantaj, kuchini ko'rsatish, ultimatumli talablarni o'rtaga olib chiqish, odamlar orasida vahima uyg'touvchi shov-shuvlarni tarqatish va hk.

Umumiy tipologiyaga ko'ra terrorizm turlari-xalqaro, ichki siyosiy, umumjinoiy xarakterdagi terrorizm.

Xalqaro terrorizm - urush olib borish bilan bog'liq qoidalar, chegaralar, hech qanday urf-odat va an'analarga bo'ysunmaydi.

U xorijiy davlat yoki tashkilot yordami bilan, chet el fuqarolariga, tashkilotlariga yoki mamlakatlariga qarshi amalga oshiriladi.

Ichki siyosiy terrorizm - davlat ichkarisidagi mahalliy fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Shu mamlakatdagi mavjud hukumat yoki qandaydir bir siyosiy guruhga qarshi yo'naltiriladi.

Ichki siyosiy terrorizmga ko'zga ko'ringan, taniqlik siyosiy va jamoat arboblari nisbatan uyushtirilgan suiqaatlarni misol sifatida keltirish mumkin. Bular - Aleksandr Men, Galina Starovoytova.

Umumjinoiy xarakterdagi terrorizm - odamlarni o'ldirish, tan jarohati etkazish, zo'rvonlik qilish, begunoh insonlarni garovga olish bilan shug'ullanuvchi tashkilot va guruhlarni tuzishga qaratiladi.

Shuningdek, bu tashkilotlar, odamlarning erkinligini cheklaydi, shaxs nafsoniyatini erga uradi, turli jismoniy qiynoqlarga soladi va hk.

⁶⁷ Беруний Алимов, филология фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD

Sub'ektlarning g'oyaviy jihatdan tarqalgan asosiy yo'nalishlari: Millatchi (natsionalistik) guruhlar - o'z davlati yoki avtonomiyasiga ega bo'lishga harakat qiladilar. Bu masalaga ko'pchilikning e'tiborini qaratadilar. Ayrimlari ham siyosiy, ham natsionalistik maqsadlarni ko'zlaydilar.

Diniy guruhlar - o'z faoliyatini boshqa dindagilarga qarshi kurashga yo'naltiradilar. Bunga misol tariqasida Irlandiya terroristik guruhini keltirish mumkin. Ular katoliklardan tashkil qilingan bo'lib, go'yoki o'zlarini kamsitilgan qilib, boshqalardan o'ch olish payida yurishadi. Shu sababdan ular barcha teraktlarni protestantlar va Britaniya hukumatiga qarshi amalga oshiradilar.

Birinchidan, ushbu guruh a'zolari o'zlarining siyosiy maqsadi - Irlandiya va Shimoliy Irlandiyani birlashtirish masalasini o'rta qo'yadilar.

Ikkinchidan, ular Shimoliy Irlandiyaning Buyuk Britaniya tarkibidan chiqishini talab qiladilar.

Uchinchidan, diniy g'oya uchun - protestantlarning ustunligiga qarshi kurash olib boradilar.

Ko'rinib turibdiki, bunday diniy guruhlar ham siyosiy, ham millatchilarga xos jihatlarni o'zida mujassam etgan.

Ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan guruhlar.

Umuman olganda ularni bevosita terroristlar qatoriga qo'shish qiyin. Biroq ayrim holatlarda ushbu guruh vakillari e'tibor jalb etish uchun terroristik metodlardan ham foydalanadilar. Masalan, ular yadroviy ob'ektlar, gidroelektrostansiyalar va boshqa shu kabi inshootlarni ishdan chiqarishga urinishlari mumkin.

Yollanma guruhlar. Hozirgi paytda dunyoning istalgan burchagiga katta pul evaziga jangari etkazib beradigan "verbovkachi" tashkilotlar talaygina. Masalan - fransuz milliy legioni. Ular jahonning deyarli barcha davlatlarida faoliyat olib boradilar. Jumladan MDH davlatlari va Rossiyada ham⁶⁸.

Yuqorida sanab o'tilgandan tashqari boshqa ko'rinishdagi teraktlar ham borki, ularni chuqur o'rganish alohida vaqt talab etadi.

Harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan asosiy tahdidlar bo'yicha: Harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan asosiy tahdidlar quyidagilardan iborat. O'zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati bo'yicha:

narkotrafik, qurol-yarog', o'q-dori, zaharli va portlovchi moddalar, qo'poruvchilik-terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan boshqa vositalar kontrabandasi bilan bog'liq transchegaraviy va xalqaro uyushgan jinoiy faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar siyosatni olib borar ekan, harbiy mojarolarning oldini olishda faol ishtirok etishni ustuvor vazifalardan biri deb hisoblaydi.

v) xalqaro darajada. O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan o'z huquqini amalga oshirar ekan, o'z Qurolli Kuchlarini:

⁶⁸ Беруний Алимов, филология фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD

ekstremizm va xalqaro terrorizm ko'rinishlarining oldini olish va ularga chek qo'yish; harbiy sohadagi milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi ekstremizm, terrorizm va boshqa g'ayriqonuniy ko'rinishlarga qarshi kurashish buyicha amaliy ishlar olib borilishi ko'rsatib o'tilgan⁶⁹.

Umumiy xulosa.

So'nggi vaqtlarda Markaziy Osiyodan chet ellarga ishlash uchun ketgan ayrim fuqarolar turli yot oqimlar, diniy va terroristik oqimlar ta'siriga tushib, jangarilar tayyorlash dala lagerlaridan tayyorgarlikdan o'tgan holda, Suriyadan o'z mamlakatlariga suqilib kirib olib pinhona fitna chiqarishga harakat qilmoqdalar. Vaziyatning bunday tahlkali o'zgarib borishi respublikamizda barcha jonkuyar fuqarolaridan hushyorlik va ogohlikni keskin oshirishlarini taqozo etadi.

Yuqoridagilar, quyidagi takliflarni shakllantirishga imkon berdi.

Birinchidan, doimiy ravishda mamlakatimizda tinchlikni saqlash, xushyorlik va ogohlikni ta'minlash bo'yicha xushyorlikni saqlash talab qilinadi. Har bir oilada tinchlik-osoyishtalik bo'lsa, qishloq, mahalla, shahar, viloyat va nihoyat mamlakatda osoyishtalik bo'ladi, yurt ravnaq topadi. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu-xunarlarini bilan axloqiy fazilatlarini ham o'stirib borishimiz va boshqa hech qanday ma'naviy bo'shliq bo'lmasligi kerak. Yosh avlodning turli yot oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish to'g'risida g'amxo'rlik faqat hukumatimiz yoki ta'lim muassasalarining vazifasi emas, balki har bir ota-onaning ham muhim burchlaridan biridir.

Ikkinchidan, biz harbiy xizmatchilar tomonidan doimiy ravishda maxalliy o'zini boshqarish va jamoat tashkilaotlari bilan birgalikda yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarni oldini olish bo'yicha, "Vatanga, ota-onaga muxabbat" mavzularida adashgan fuqarolar misolida amaliy-ko'rgazmali tadbirlarni amalga oshirish hamda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda 167-II-son "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi O'RQ-489-son "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 5 bob 23 modda, (Qonunchilik palatasi tomonidan 2018 yil 12 iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2018 yil 28 iyunda ma'qullangan)

Ekstremizmning salbiy oqibatlari, Dilmoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilmoma.uz, 25.07.2022 yil. Dilrabo Kuryazova

Ekstremizm va terrorizm - havfli illat. Dilmoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilmoma.uz, 07.08.2022 yil, Dilrabo Kuryazova.

⁶⁹ Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январь, ЎРҚ-458-сон "Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида", Қонуни

Karimov I. A., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, Terrorizm, 1997;

Karimov I. A., Terrorizm xavfi to'g'risida, Terrorizm, 2001; Karimov I., Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. Terrorizm, 2004;

Alisher Murodov O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistratura tinglovchisi E-mail: alishermurodov857@gmail.com

“Diniy ekstremizm va terrorizm - jamiyat taraqqiyotiga tahdid” O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha davlat qo'mitasi O'.Hasanboev Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar 14.06.2022 yil dilmoma.uz,

“Diniy ekstremizm va terrorizm - jamiyat taraqqiyotiga tahdid”. Yangiariq tumani bosh imom-xatib R.Otajonov

“Diniy ekstremizm va terrorizm yoshlar kelajagiga tahdid”,.Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar. Imom Buxoriy xalqaro markazi direktor o'rinbosari Baxtiyor Turaev Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar 14.06.2022 yil dilmoma.uz.

“Terrorizmga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati”, Dilrabo Kuryazova Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilmoma.uz 03.06.2022 yil

“Terrorizmga qarshi kurashishda huquqiy asos”, Dilrabo Kuryazova Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilmoma.uz.12.07.2022 yil

“Shanxay Konvensiyasi terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida”, 15.06.2001 yil. 3-band, 1-qism, 1-modda.

Birinchi Prezident I.A.Karimov, O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqi.

O'zbekiston Respublikasi PF-27-son “O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirishi chora tadbirlari to'g'risida”gi 2021 yil 29 noyabr kungi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi “Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida”gi Qonuni 467-I-son 29.08.1997 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi PF-6255-son “O'zbekiston Respublikasining Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2026 yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvar, O'RQ-458-son “O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida” Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 18 dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2017 yil 20 dekabrda ma'qullangan.